



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## INSON HUQUQLARI ERKINLIKHLARI VA MAJBURIYATLARI

**Rajabboyeva Munisa Mahmudjon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*“Xalqaro huquq” fakulteti talabasi*

*1-kurs 1-2a-24 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson huquqlari erkinliklari va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasida va umumjahon ya’ni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qanday yozib qo‘yilgani Insonlarning huquqlari nimalarga qarab bo‘linishi kim qanday huquqlarga ega ekanligi va shu bilan birligida majburiyat burchlarga egaligi haqida .

**Kalit so’zlar:** Inson huquqlari ,erkinliklari,burchlari. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi,Inson huquqlari umumjahon deklarataiyasi .

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются права, свободы и обязанности человека, как они закреплены в законодательстве Республики Узбекистан и во Всеобщей декларации прав человека. Освещается, на какие категории подразделяются права человека, кто какими правами обладает, а также подчёркивается, что вместе с правами у человека есть и обязанности.

**Ключевые слова:** права человека, свободы, обязанности, Конституция Республики Узбекистан, Всеобщая декларация прав человека.

**Annotation:** This article discusses human rights, freedoms, and obligations as outlined in the legislation of the Republic of Uzbekistan and in the Universal Declaration of Human Rights. It examines how human rights are classified, who holds which rights, and emphasizes that along with rights, individuals also have corresponding duties and responsibilities.

**Keywords:** human rights, freedoms, duties, Constitution of the Republic of Uzbekistan, Universal Declaration of Human Rights.

### **Kirish**

Inson huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari har bir jamiyat va davlat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Inson huquqlari — bu har bir shaxsga tug‘ilgandan boshlab beriladigan ajralmas va daxlsiz huquqlardir. Shu bilan birga, har bir huquq o‘ziga xos majburiyat va burchlarni ham yuzaga keltiradi. Inson jamiyat a’zosi sifatida o‘z huquqlari doirasida boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini bajarishi shart. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va Inson huquqlari umumjahon





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'ÖYALAR



deklaratsiyasida inson huquqlari, erkinliklari hamda majburiyatları qanday belgilab berilgani, shuningdek, huquqlar tasnifi va ularga mos majburiyatlar haqida so‘z yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida inson huquq ,erkinlik,burch va majburiyatları.

O‘zbekiston Respublikasining ikkinchi bo’limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari ,erkinliklari va burchlari deb nomlanadi.U o’z ichiga V ,VI,VII,VIII, IX ,XI boblarni va 19 – moddadan 64- moddalarni o’z ichiga oladi.

V – bob 19- moddadan 21-moddagacha bu umumiy qoidalar ;

VI-bob 22-moddadan 24- moddагача Fuqarolik haqida;

VII-bob 25-moddadan 35- moddагача Shaxsiy huquq va erkinliklar ;

VIII-bob 36-moddadan 40-moddagacha Siyosiy huquqlar;

IX-bob 41-moddadan 53-moddagacha Iqtisodiy ,ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar;

X-bob 54-moddadan 58-moddagacha Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari;

XI-bob 59-moddadan 64- moddагача Fuqarolarning burchlaridir.

Umumiy qoidalar bobida Inson huquqlari erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konsitutsiyaga muvofiq e’tirof etilgani va kafolatganligi keltirib o’tilgan.O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar jinsi,irqi,millati ,tili,dini ,e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar qonun oldida tengligi yozib o’tilgan.

Shaxsiy huquq va erkinliklar deb nomlangan bobda har bir inson yashash huquqiga ega ekanligi va uning bu huquqi ajralmas huquqiligi va qonun bilan muhofaza qilinishi yozilgan .Insonning sha’ni qadr qimmati daxlsizligi . Har kim erkin daxlsizlik huquqiga ega ekanligi;qonunga asoslanmagan tarzda hibsga olinishi ,ushlab turilishi , qamoqda saqlanishi mumkin emasligi;malakali yuridik yordam olish;uy-joy daxlsizligi fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi ;axborotni izlash olish va uni tarqatish;Davlat Internet jagon tarmog’idan foydalanish ;vijdon erkinligi kafolati;xoxlagan dinga e’tiqod qila olishi kabi huquqlari ko’rsatib yozib o’tilgan.

Siyosiy huquqlari bobida Davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki vakillari orqali ishtirok etish huquqi . Davlat xizmatlariga kirishda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolari teng huquqga ega ekanligi;ijtimoiy faoliyklarini miting ,yigi’lish, namoyoshlar shaklida o’tkazishi; O‘zbekiston Respublikasida fuqarolari kasaba uyushmalariga ,siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga ommaviy ishtirok etishi huquqi va boshqalar keltirib o’tilgan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



. Iqtisodiy ,ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar bobida : har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqi ;bank operatsiyalari ,omonatlari hisob varaqalarinig sir tutilishi,meros huquqi;mehnat qilish,kasb va faoliyat turini erkin tanlash;dam olish huquqi ,har yilgi haq to'lanadigan mehnat ta'tilini olish;har kim qariganda ,mehnat qobiliyatini yo'qotganda ,boquvchisini yo'qotganda qonunda nazarda tutilgan holda ijtimoiy ta'minot huquqi ;uy-joyli bo'lish huquqi sog'liqni saqlash ,malakali tibbiy yordam xizmatlaridan foydalanish huquqi ;atrof-muhit uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi; ta'lim olish huquqi;ilmiy, badiiy , texnikaviy erkinliglari yozib o'tilgan.

Inson huquqlari erkinliklari kafolatlari. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning ,ular mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari,harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga murojat qilish huquqi kafolatlanadi. Mehnatga layoqatsiz, yolg'iz keksalar nogironligi mavjid bo'lган shaxslar ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Fuqarolarning burchlari. Konsitutsiya va qonunlarga rioya qilish ,boshqa insonlarning huquqlari,erkinliklari, sha'ni qadr-qimmatini hurmat qilishga majburligi;.O'zbekistonning tarixiy , ma'naviy ,madaniy,ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shaetligi; qonun bilan belgilangan soliq va yig'implarni to'lashi shartligi O'zbekiston Respublikasini himoya qilish yozib o'tilgan.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.** 1948-yil 10-dekabrda BMT Assambleyasining 217A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan .1-moddasida hamma odamlar erkin teng bo'lib tug'ilishi haqida aytib o'tilgan

.4- moddasida Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emasligi qullik va qul savdosining barcha ko'rinishi ta'qiqilanishi keltirib o'tilgan.

13- modda 1. Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqiga ega. 2.Har bir inson har qanday mamlakatdan ,xususan o'z mamlakatidan chiqib ketish va o'z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

### 18-MODDA

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huqua o'z dini yoki e'tigodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat gilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal gilish erkinligini o'z ichiga oladi.

### 19-MODDA

Har bir inson etiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huqua hech bir tusqsiz o'z etiqodiga amal gilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi.

### **22-MODDA**

Har bir inson jamiyat azosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta'minotga va o'zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bolgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli.

### **23-MODDA**

1. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya gilinish huquqiga ega.

2. Har bir inson hech bir kamshitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.

3. Har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydigan adolatli va qonigarli daromad olishga, zarur bolganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan toldiriluvchi daromad olish huquqiga ega.

4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

### **24-MODDA**

Har bir inson dam olish va bosh vaqtga ega bolish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haqtolanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

Boshqa huquq va erkinliklar yozib o'tilgan va bu huquq ,erkinliklaf O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi va boshqa qonunlarida ham keltirib o'tilgan.

### **Xulosa**

Inson huquqlari va erkinliklari har bir shaxsning erkin rivojlanishi va jamiyatda munosib hayot kechirishi uchun muhim asosdir. Shu bilan birga, har bir huquq o'ziga mos majburiyat va burchni ham yuzaga keltiradi. Huquqlarni amalga oshirish jarayonida inson o'z jamiyatni va davlati oldida javobgarlikni his qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarini mustahkamlab, ularning kafolatlarini belgilab beradi, shuningdek, har bir fuqaroning jamiyat oldidagi burchlarini ham aniq ko'rsatib beradi. Inson huquqlarini hurmat qilish va ularni himoya qilish — demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Shuning uchun har bir shaxs o'z huquqlarini bilishi, ulardan ongli ravishda foydalanishi va o'z burchlarini ado etishi zarur.





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



### **Foydalaniqan manbalar:**

O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi ;  
Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi .



876

